

**INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA SHART KOMPONENTLI
GIPOTAKSEMALARING SHART KOMPONENTI TARKIBIDA
KELUVCHI MAYL TURLARI**

**TYPES OF MOOD THAT COMES WITH HYPOTAXEMAS WITH
CONDITIONAL COMPONENTS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES**

Ubaydullayeva Durdonova Raxmonjon qizi

Farg’ona davlat universiteti, Chet tillar fakulteti, ingliz tili kafedrasi o‘qituvchi

ubaydullayevadurdonaxon464@gmail.com

Annotasiya: Maqlada shart komponentli gipotaksemalarning shart komponent qismida ishlataladigan mayl turlari, ShKG komponent kesimidagi zamon shakllari va ularning ingliz tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilinganda mayl va zamon shakllarining mos varianti tanlanishi aniqlandi.

Kalit so’zlar: shart komponentli gipotaksema, mayl, zamon, shaxs-son, shart-istak

Abstract: In the article, it was found out the types of mood used in the conditional component of hypotaxemes with a conditional component, the tense forms of the component section of CCH and the selection of the appropriate variant of the mood and tense forms when translating them from English to Uzbek.

Key words: conditional component hypotaxema, tendency, tense, person-number

Аннотация: В статье выяснены виды наклонения, употребляемые в условном компоненте гипотаксем с условным компонентом, временные формы в компонентном разделе УКГ и подбор соответствующего варианта наклонения и временных форм при переводе их с английского на узбекский.

Ключевые слова: условный компонент гипотаксема, тенденция, время, человеко-число, условное желание.

So‘zlovchi shaxs tomonidan tinglovchiga harakat (holat) ning ijrosi (yoki uning sodir bo‘lishi) haqida berilgan xabar-darak ma’nosini va modallik tushunchasini ifodalovchi fe'l shakllari fe'l mayli deyiladi. Fe'lning mayl shakllari vositasida harakat-holatning ro‘yobga kelishi, paydo bo‘lgani haqida so‘zlovchi tomonidan

tinglovchiga berilgan darak ma'nosи, modallik tushunchasi bilan birga zamon, shaxson va shu kabi ma'nolar ham ifodalanadi. Demak, modallik tushunchasi fe'llar bilan chambarchas bog'liq.

Mayl shakllari modallik, zamon, shaxs-son shakllari bilan uzviy bog'liqdir. Zamon, shaxs-son shakllaridan ajralgan holda sof mayl shakli mavjud bo'la olmaydi. Mayl shakllari yordamida harakat ijrosi haqida so'zlovchi tomonidan tinglovchiga berilgan xabar yo darak har xil bo'ladi. Shunga qarab, mayl tushunchasi ham buyruq, darak, shart, maqsad, gumon, hikoya, orzu-istik, iltimos tarzida har xil shakllarda ifodalanadi.

Zamon va mayl kategoriyalari shaxs-son va tasdik-inkor kategoriyalari bilan bir butunlikda kesimlik kategoriyasini tashkil etadi. Bu kategoriyalarning o'zaro zich aloqadorligi va dialektik yaxlitligi bu kategoriyaning har biriga mansub shaklni, ularning kategorial va nokategorial ma'nosini izchil farqlashni qiyinlashtiradi. Shu boisdan ko'plab tadqiqotlarda zamon shakli mayl kategoriyasi ma'nosidan bo'linmagan holda tadqiq etiladi va kategoriyalararo bog'liqlik barcha tilshunoslar tomonidan tan olinadi.

Modal ma'no bildiruvchi mayl kategoriyasi “zamon va shaxs-son kategoriyasi bilan uzviy bog'liq bo'lib, hammasi birgalikda fe'lning tuslanish sistemasini tashkil qiladi, predikativlik ifodalanish formasi hisoblanadi.” (q.:Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullev Sh).

Shart komponentli gipotaksemalar mayl va zamon formalari uchun juda ham antiqa kontekst hisoblanadi. Bu gipotaksemalarda aniqlik mayli formalarining ma'nolari reallikdan to noreallikagacha o'zgarishi mumkin. Masalan, quyidagi ingliz shart komponentli gipotaksemalarning hol komponentida aniqlik mayli va formalari hisoblanadigan *Past Perfect*, *Past Indefinite*, *Future-in-the-Past* formalari o'zlarining reallik ma'nosini yo'qotib, noreallik ifodalaydi.

It would not finish it if one side stopped fighting. (E. Hemingway. A Farewell to Arms. p 63.)

If he hadn't I wouldn't have met you. (E. Hemingway. A Farewell to Arms. p 152.)

O'zbek tilidagi SHKGlarning shart komponentidagi shart mayli ma'nosi bosh gapdagi fe'l formalarining ishlatalishiga ko'ra 1) reallik, 2) mumkinlik, va 3) noreallik ifodalashi mumkin.

1. *Ilgarilari vaqtি bo'lsa, biznikiga kelib turar edi. (O'.Hoshimov. Tanlangan asarlar VI. 172 b.) (real ya'ni, vaqt bo'lgan)*

2. *Vaqtim bo'lsa, kelaman. (vaqt bo'lishi mumkin)*

3. *Vaqtim bo'lsa, men ham borar edim. (noreal vaqtি yo'q, shuning uchun borolmayman)*

SHKGlar o'tgan zamonga mansub bo'lgan taxmin va faraz qilingan ish-harakatni ifodalab keladi, shuning uchun bunday ish-harakat amalga oshmaydi. Buturdagi SHKGlar o'zbek tilidagi shart-istik maylining o'tgan zamon formasiga mos tushadi. Tobe komponentlarda o'tgan tugallangan zamon formasini qo'llansa, bosh gap tarkibida *would + Perfect Infinitive* (to yuklamasiz) formasini qo'llanadi: *If your offer had been received ten days ago, the goods would have been shipped and sent yesterday.* Bu gapni o'zbek tiliga tarjima qilishda o'zbek tilidagi shart-istik maylining o'tgan zamon formasidan foydalilanadi, ya'ni “...ganda edi, ...gan bo'lar edi” tarzida tarjima qilinadi: Agar sizning buyurtmangiz o'n kun oldin qabul qilinganda edi, mahsulotlar kecha yuklatilib, jo'natilgan bo'lar edi.

If Aymo had not been killed there would never have seemed to be any danger. [E. Hemingway. A Farewell to Arms, p. 157]

O'zbek tilida: *Agar Aymo halok bo'lmaganda edi, har qanday xatarning yuz bermasligi mumkin edi.*

“Oh, Marian!” she whispered, softly. “If my mother had been alive, she could have done no more for me.” [W. Collins. The women in white. p 50]

O'zbek tilida: *“O, Marian!” shivirladi u mayingina. “Agar onam xayot bo'lganda, menga hech narsa qila olmas edi.”*

I would have done it if had had more time yesterday. [W. Collins. The women in white. p 103]

O‘zbek tilida: *Agar meni kecha vaqtim ko‘p bo‘lganda edi, men buni bajarib qo‘ygan bo‘lar edim.*

Yuqoridagi keltirilgan misollardan ko‘rinib turibdiki, zamon va mayl ma’nosil shu darajada zich bog‘langanki, aksariyat holda maylning ma’noviy xususiyatini zamonsiz, zamon ma’nosini mayl ma’nosidan ajratib talqin qilib bo‘lmaydi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. –T O‘zbekiston, 1992.
2. Yusupov.U.K. Ingliz tili grammatikasidan universal qo‘llanma. – T. 2013.
- 3.G‘ulomov A., Asqarova M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Sintaksis. T., 1961.
4. Ubaydullayeva, D., & Raxmonqulova, M. (2022). TILSHUNOSLIKDA IJTIMOIY YO’NALISHNING TARAQQIYOTI. Science and innovation, 1(B6), 869-873.
5. G’opporova, N., & Ubaydullayeva, D. (2022). A COMMUNICATIVE PRAGMATIC STUDY OF MEANS OF EXPRESSING DIRECTIVE SPEECH ACTS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES. Евразийский журнал академических исследований, 2(12), 825-827.